

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KOSBERGENOV ERNAZAR JUSIPBAY O‘G‘LI

**NIKEL BILAN LEGIRLANGAN KREMNIY VA UNING ASOSIDAGI
FOTOELEMENTLAR PARAMETRLARIGA HARORAT VA GAMMA
NURLANISHNING TA‘SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Kosbergenov Ernazar Jusipbay o'g'li

Nikel bilan legirlangan kremniy va uning asosidagi fotoelementlar parametrlariga harorat va gamma nurlanishning ta'siri..... 3

Косбергенов Ерназар Жусипбай улы

Влияние температуры и гамма облучения на параметры кремния, легированного никелем и фотоэлементов на его основе..... 21

Kosbergenov Ernazar Jusipbay uly

Influence of temperature and gamma irradiation on the parameters of silicon doped with nickel and photocells based on it 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KOSBERGENOV ERNAZAR JUSIPBAY O‘G‘LI

**NIKEL BILAN LEGIRLANGAN KREMNIY VA UNING ASOSIDAGI
FOTOELEMENTLAR PARAMETRLARIGA HARORAT VA GAMMA
NURLANISHNING TA‘SIRI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM769 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismaylov Qanatbay Abdreymovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turgunov Nozimjon Abdumannopovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yo‘lchiev Shaxriyor Xusanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 07 » 09 soat 12-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100057, O‘zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko‘chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz.)

Dissertatsiya bilan Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘limida tanishish mumkin. (54-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100057, O‘zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 25 » 08 kuni tarqatildi.
(2023-yil « 25 » 08 dagi 54-raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f. d., professor

J.J. Hamdamov,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

N.A. Turgunov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f. d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahonda qo‘shimcha energiya resurslariga talab oshishi tufayli, kremniy asosidagi fotoelementlar (FE) keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda. Ular orasida monokristall kremniy (mono-Si) va polikristall kremniy (poli-Si) asosidagi FEarning tashqi ta’sirlarga sezgirligi yuqori hisoblanadi. Shu sababli, harorat va radiatsiyaning FEarning parametrlariga, mustahkamligiga, turg‘un ishlashiga ta’sirini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosidagi ilg‘or ilmiy markazlarda, yarimo‘tkazgichli birikmalar asosidagi, ko‘pkaskadli, samaradorligi yuqori bo‘lgan FElar yaratilmoqda. Lekin, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi murakkab va qimmat xomashyo va uskunalarni talab qiladi. Dunyo bozorida ishlab chiqarilishi bo‘yicha poli-Si asosidagi FEarning ulushi 52,9 % ni, mono-Si asosidagi FEarning ulushi 33,2 % ni va amorf kremniy asosidagi FEarning ulushi 13,9 % ni tashkil qiladi. Nisbatan arzonligi tufayli poli-Si asosidagi FElar va yarimo‘tkazgichli qurilmalar yaratish dunyoda yuqori o‘rinni egallab kelmoqda. Shu sababli, samaradorligi yuqori bo‘lgan poli-Si asosidagi FEarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasini rivojlantirish, xususan, jahon andozalari talablariga javob beradigan arzon FElar va yarimo‘tkazgichli qurilmalar yaratish hamda ularning parametrlarini o‘rganish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada kremniydagi nikel bilan getterlash orqali, asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini oshirishga, kremniyning temperaturaviy va radiatsiyaviy turg‘unligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bilan birga, birikmalar shakllanishining fizik mexanizmlari va birikmalarga ega materiallar olishning texnologik usullari to‘liq ishlab chiqilmagan. Shunday ekan, kremniyni nikel kirishma atomlari bilan legirlash orqali, iqtisodiy nuqtai nazardan nisbatan arzon hamda termik ishlov (TI) va radiatsiyaga chidamli FEarni yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O‘zRQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida va ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining III. “Energetika, energiya resurslarini tejash, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronikasi mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar nikel atomlarining diffuziya mexanizmi, ularning kristall panjaradagi holati, mono-Si ning elektr parametrlariga ta'siri, nikel kirishma atomlarining birikmalari xossalari hamda birikmalarning hosil bo'lishining fizik mexanizmlari H. Kitagawa, A. Istratov, M. Yoshida, H. Aalberts, J. Lindroos, S. Tanaka va boshqa xorij olimlari tomonidan o'rganilgan.

Nikel kirishma atomlarining boshqa kirishma atomlari bilan kompleks hosil qilishi va komplekslarning fizik xossalari, harorat va radiatsiyaning kremniy va kremniyli FELarning elektrofizik parametrlariga ta'siri F. Korshunov, V. Prosolovich, I. Medvedova ishlarida o'rganilgan.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari (Yaponiya, Slovakiya, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya davlatlaridagi), institutlari va universitetlarida fotoenergetika va mikroelektronika uchun mo'ljallangan poli-Si ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Donadorlik chegaralari sohasining atom strukturasi, poli-Si da segregatsiya va diffuziya jarayonlari o'rganilgan. K. Boubaker, R. Hopkins, J. Davis, P. Rai-Chaudri va boshqalar poli-Si asosidagi FELar samaradorligini oshirish uchun keng miqyosli tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbekistonda akademiklar M. Bahadixonov, S. Zaynabiddinov, R. Mo'minov, A. Mamadalimov, professorlar K. Abdurahmonov, Sh. Utamurodova va ularning shogirdlari tomonidan, kirishma atomlarining turli xil nuqsonlar bilan o'zaro ta'siri, shuningdek, ularning kremniyning rekombinatsion xossalari ta'siri o'rganilgan. Akademik M. Saidov, professorlar A. Saidov, A. Karimov, R. Aliev, I. Otaboyevlar tomonidan poli-Si asosidagi yarimo'tkazgichli qurilmalar va FELar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Nikel bilan legirlangan kremniyning parametrlarini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy natijalarga erishilganligiga qaramasdan, gamma-nurlanish va haroratning, poli-Si va o'stirish jarayonida nikel bilan legirlangan mono-Si parametrlariga ta'siri to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti TDTU ning "Raqamli elektronika va mikroelektronika" kafedrasida va QQDU ning "Yarimo'tkazgichlar fizikasi" kafedralarining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F2-50 «Kremniy panjarasida $A^{III}B^V$ va $A^{II}B^{VI}$ yarimo'tkazgich birikmalarining elementar yacheykalari shakllanishining ilmiy asoslarini ishlab chiqish – fotoenergetika va fotonika uchun istiqbolli materiallar olishdagi yangi yondashuv» (2017-2020 yy.) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nikel kirishma atomlari bilan legirlangan mono-Si va poli-Si hamda ular asosidagi fotoelementlar parametrlariga harorat va gamma-nurlanish ta'sirining o'ziga xos jihatlari o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nikel kirishma atomlari bilan legirlashning poli-Si elektrofizik parametrlariga ta'sirini (mono-Si namunalari bilan solishtirib) o'rganish;

nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si asosidagi FELar parametrlarini tadqiq qilish;

nikel kirishma atomlari bilan diffuziya usulida legirlangan, mono-Si va poli-Si hamda ular asosidagi FELar elektrofizik parametrlariga gamma-nurlanishning ta'sirini tadqiq qilish;

o'stirish jarayonida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan mono-Si ning parametrlariga termik ishlov va gamma-nurlanishning ta'sirini o'rganish;

o'stirish jarayonida va diffuziya usulida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan mono-Si asosidagi FELar parametrlarini solishtirish orqali tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Choxral usuli bilan o'stirilgan mono-Si (Cz-Si, p -tip o'tkazuvchanlikka ega, kovaklar konsentratsiyasi $N_p=(2\div3)\cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$); tigelsiz zonali eritish usuli bilan o'stirilgan mono-Si (Fz-Si, n -tip o'tkazuvchanlikka ega, elektronlar konsentratsiyasi $N_n=(2\div5)\cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$); poli-Si (donadorliklar o'lchami $10\div 500 \text{ mkm}$, n -tip o'tkazuvchanlikka ega, elektronlar konsentratsiyasi $N_n=(2\div5)\cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$); nikel kirishma atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlangan mono-Si (p -tip o'tkazuvchanlikka ega, kovaklar konsentratsiyasi $N_p=(2\div3)\cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$); sanoatda ishlab chiqarilgan, p^+-p-n^+ strukturaga ega bo'lgan, poli-Si va mono-Si asosidagi FELar olingan.

Tadqiqotning predmeti ^{60}Co gamma-kvantlari bilan nurlantirishdan va TI ta'siridan keyingi, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan, poli-Si va mono-Si hamda ular asosidagi FELarning elektrik, fotoelektrik va optik xossalarning o'zgarishi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: ikkilamchi ion massa spektrometriyasi va energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi, atom kuch mikroskopiyasi, skanerli elektron mikroskopiya, Xoll effekti usuli, infraqizil Furrye spektroskopiyasi, infraqizil mikroskopiya.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor $850\div 1200 \text{ }^\circ\text{C}$ harorat oralig'ida diffuziya usulida nikel bilan legirlangan poli-Si sirtidagi nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi, mono-Si namunalaridagidan $\sim 3\div 4$ marta katta ekanligi aniqlangan;

diffuziya harorati 850°C dan 1200°C gacha oshishi bilan, poli-Si sirtidagi nikel kirishma atomlarining konsentratsiyasi $9,43\cdot 10^{13} \text{ sm}^{-2}$ dan $1,2\cdot 10^{13} \text{ sm}^{-2}$ gacha kamayishi aniqlangan;

ilk bor poli-Si namunalarida diffuziya harorati $1200 \text{ }^\circ\text{C}$ bo'lganda elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasi $\sim 4\cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga tengligi va bu qiymat mono-Si namunalaridagiga nisbatan bir tartibga kichik ekanligi aniqlangan;

ilk bor diffuziya usuli bilan legirlangan poli-Si da nikel kirishma atomlari birikmalarining o'lchami mono-Si namunalariga nisbatan $\sim 10^2$ marta kichik ekanligi, ularning konsentratsiyasi esa $\sim 10^3$ marta katta ekanligi aniqlangan;

o'stirish jarayonida nikel bilan legirlangan mono-Si namunalarining hajmidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi $\sim (1\div 2)\cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$, nikel birikmalari o'lchami $\sim 6\div 8 \text{ mkm}$ va ularning konsentratsiyasi $\sim (5\div 8)\cdot 10^3 \text{ sm}^{-2}$ teng ekanligi aniqlangan;

termik ishlov haroratini 450°C dan 1200°C gacha oshirilganda, o'stirish jarayonida nikel atomlari bilan legirlangan mono-Si sirtidagi nikel kirishma

atomlari konsentratsiyasi mos ravishda $1,05 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-2}$ dan $5,07 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ gacha oshib borishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

nikel kirishma atomlari bilan legirlash harorati oshishi bilan, mono-Si asosidagi FElar parametrlarining radiatsion turg'unligi oshishi aniqlangan;

gamma-nurlanish dozasi 10^6 rad dan $3 \cdot 10^8$ rad gacha oshishi bilan, o'stirish jarayonida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalariidagi birikmalar o'lchami va namunaning solishtirma qarshiligi kamayishi aniqlangan;

kremniydagi elektroaktiv nikel atomlari konsentratsiyasini oshirishning texnologik usuli sifatida nikel bilan legirlangan kremniy namunalari ^{60}Co gamma-kvantlari bilan nurlantirishdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

legirlash usuliga bog'liq bo'lmagan ravishda nikel atomlarining kremniyda mavjudligi 450°C da termik ishlov berishda hosil bo'luvchi termodonorlarning, tez sovutish bilan yakunlanadigan termik ishlovda hosil bo'ladigan termonuqsonlarning hamda gamma-nurlanish ta'sirida hosil bo'ladigan radiatsion nuqsonlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi zamonaviy o'lchash vositalari va tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, tajribada olingan va hisoblangan ma'lumotlarning boshqa mualliflarning nazariy natijalari bilan muvofiqligi, shuningdek olingan natijalarning zamonaviy fizik modellar asosida tavsiflanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar nikel kirishma atomlari bilan legirlangan mono-Si va poli-Si dagi gamma-nurlanish va temperatura ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar mexanizmini yoritib berishga imkon beradi. Olingan natijalarni, poli-Si da nikel kirishma atomlari birikmalari hosil bo'lishining o'ziga xos tomonlarini tushuntirishda ishlatish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, radiatsiyaga chidamli FElar olish uchun, nikel kirishma atomlari bilan legirlashning texnologiyasini asoslash, elektrofaol nikel kirishma atomlarining konsentratsiyasini oshirishda radiatsion texnologiyani ishlab chiqish, kosmik elektronika uchun radiatsiyaga chidamli yarimo'tkazgichli asboblari ishlab chiqishdan iborat. Olingan natijalar, harorat va radiatsiyaga turg'un parametrlari, legirlangan kremniy asosidagi yarimo'tkazgichli asboblari (*p-n* strukturalari) olishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan mono-Si va poli-Si hamda ular asosidagi FElar parametrlariga termik ishlov va gamma-nurlanish ta'sirining o'ziga xos tomonlarini o'rganish asosida:

nikel bilan diffuziyaviy legirlangan poli-Si namunalariining yuzasidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi mono-Si namunalariidagiga nisbatan $\sim 3\div 4$ marta katta ekanligidan, namunalar yuzasidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi diffuziya harorati oshishi bilan kamayib borishidan, shuningdek TI harorati 450°C

dan 1200 °C gacha oshishi bilan (TI vaqti 2 soat), o‘stirish jarayonida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtidagi nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi mos ravishda $1,05 \cdot 10^{11}$ dan $5,07 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ gacha oshib borishidan «FOTON» aksiyadorlik jamiyatida poli-Si va mono-Si ning TI va gamma-nurlanishga chidamliligini oshirish uchun optimal texnologik yechimni aniqlashda foydalanilgan (“Uzeltexsanoat” uyushmasining 2022-yil 28-dekabrda 04-3/1894-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish, jahon analoglari natijalariga mos va gamma-nurlanishga chidamli bo‘lgan tajriba namunalari ishlab chiqarish imkonini bergan;

diffuziya usulida legirlangan poli-Si da, elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasi, mono-Si dagi elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasidan bir tartibga kichik va diffuziya harorati 1200 °C bo‘lganda qiymati $\sim 4 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga tengligidan, diffuziya harorati oshishi bilan ($T > 1000 \text{ °C}$), nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si asosidagi FElar parametrlari (qisqa tutashuv toki, salt yurish kuchlanishi), nazorat FElari parametrlariga nisbatan oshib borishidan, legirlash usuliga bog‘liq bo‘lmagan ravishda (diffuziya usulida legirlash, o‘stirilayotganda legirlash), nikel atomlarining kremniyda mavjud bo‘lishi, $\sim 450 \text{ °C}$ haroratli TI berishda hosil bo‘luvchi termodononlarning, tez sovutish bilan yakunlanadigan TI da hosil bo‘ladigan termonuqsonlarning hamda gamma-nurlanish ta’sirida hosil bo‘ladigan radiatsion nuqsonlarning hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qilishidan, TI (2 soat davomida) harorati 450 °C dan 1200 °C gacha oshishi bilan o‘stirish jarayonida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtidagi nikel atomlari konsentratsiyasi mos ravishda $1,05 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-2}$ dan $5,07 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ gacha oshib borishidan “Legirlangan monokristal kremniy yadro transmutatsiyasida radiatsion-stimullangan jarayonlar” mavzusidagi F-2-41 fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zR FA ning 2022-yil 12-dekabrda 2/1255-3123-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish yadroviy transmutatsiya jarayonida legirlangan namunalarda nikel konsentratsiyasini va namunalarning termik barqarorligini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishini bajarishda olingan asosiy ilmiy natijalar 7 ta xalqaro, 4 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ilmiy ishlar, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola e’lon qilingan, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, ilova va xulosadan iborat bo‘lib, 45 ta rasm, 19 ta jadvalni o‘z ichiga olgan holda 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va metodlari keltirilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

«Kremniy va kremniyli fotoelementlar parametrlari turg'unligi va kirishma

atomlarining o'rni» deb nomlangan birinchi bobda poli-Si va mono-Si da nikel atomlari diffuziyasining o'ziga xos tomonlari, kremniy va kremniyli FELar xossalari gamma-nurlanish va harorat ta'sirida o'zgarishi ko'rib chiqildi. Mavjud nazariy va tajribada olingan ma'lumotlar tahlili asosida dissertatsiya ishini bajarishda vazifalari aniqlangan.

«Nikel kirishma atomlari bilan legirlash texnologiyasi va tadqiqot metodikasi» deb nomlangan ikkinchi bobda qo'llaniladigan eksperimental qurilmalar tavsifi, nikel kirishma atomlari bilan poli-Si va mono-Si (tigelsiz zonali eritish usuli bilan o'stirilgan – Fz-Si, Choxral usuli bilan o'stirilgan – Cz-Si va o'stirish jarayonida nikel bilan legirlangan kremniy – Si:Ni (1-rasm va 1-jadval)) namunalarini legirlash va ular asosida FELar olish texnologiyasi keltirilgan. Shu bilan birga, materiallarning va FELarning elektrofizik, fotoelektrik va optik parametrlarini o'lchash metodikasi ko'rib chiqilgan.

«Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si va mono-Si hamda ular asosidagi fotoelementlar parametrlariga termik ishlov berishning ta'siri» deb nomlangan uchinchi bobda Si:Ni namunalarida termodonorlar hosil bo'lishi o'rganildi. 1-rasmda Si:Ni (solishtirma qarshiligi $\rho \sim 70 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ (1-jadval)) va nazorat namunalari (Cz-Si) da $T_{\text{TI}}=450 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratdagi termodonorlar hosil bo'lish kinetikasini o'rganish natijalari keltirilgan. Termodonorlar konsentratsiyasi $N_{\text{TD}}=p_0-p_{\text{TI}}$ formula orqali hisoblandi, bunda N_{TD} – termodonorlar konsentratsiyasi, p_{TI} – TI dan keyingi kovaklar konsentratsiyasi, p_0 – TI dan oldingi kovaklar konsentratsiyasi.

1-rasmdan ko'rinadiki Si:Ni namunalari $T_{\text{TI}}=450 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratdagi TI davomiyligidan qat'iy nazar o'zining dastlabki parametrlarini saqlab qoladi. Nazorat namunalari (1-jadval) parametrlari bo'lsa TI vaqti oshishi bilan sezilarli o'zgarib boradi, va 12 soatdan ortiq TI dan keyin o'tkazuvchanlik tipi o'zgaradi, ya'ni namunalar o'tkazuvchanligi n – tipga va solishtirma qarshiligi esa $\rho \sim 6,6 \cdot 10^3 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ ga teng bo'ladi. Nazorat namunalarining o'tkazuvchanlik tipi


1-jadval

Dastlabki kremniy namunalarining parametrlari


Namuna	tip	N_n, N_p, sm^{-3}
poli-Si	n	$(2 \div 5) \cdot 10^{13}$
Fz-Si	n	$(2 \div 5) \cdot 10^{13}$
Si:Ni:	p	$(2 \div 3) \cdot 10^{14}$
Cz-Si	p	$(2 \div 3) \cdot 10^{14}$

o'zgargandan so'ng, termodonorlar konsentratsiyasi $N_{TD}=p_0+p_{TI}$ ga muvofiq hisoblandi.

Namunalar o'tkazish spektrini o'lchash orqali (2-rasm) Cz-Si va Si:Ni namunalaridagi kislorod konsentratsiyasi, Fz-Si va poli-Si ga nisbatan katta ekanligi aniqlandi. Si:Ni dagi optik faol kislorod konsentratsiyasi, Cz-Si namunalariga nisbatan 25÷30% kichik (2-rasm) bo'lib, bu nikel atomlari kislorod atomlarini getterlashi bilan tushuntirildi.



1-rasm. Nazorat namunalari Cz-Si (1) va Si:Ni (2) da termodonorlar ($T_{TI}=450$ °C) hosil bo'lish kinetikasi




2-rasm. Dastlabki namunalarning o'tkazish spektri

2-jadval

Tez sovutish bilan yakunlanuvchi TI dan keyingi Si:Ni va nazorat namunalarning elektrik parametrlari

TI harorati, °C	TI vaqti, soat	Namuna parametrlari			
		Nazorat		Si:Ni	
		Tip	ρ , Om·sm	Tip	ρ , Om·sm
1000	2	<i>p</i>	$2 \cdot 10^2$	<i>p</i>	75
1100	2	<i>p</i>	10^4	<i>p</i>	90
1150	2	<i>n</i>	10^3	<i>p</i>	100
1200	2	<i>n</i>	330	<i>p</i>	120
1300	2	<i>n</i>	300	<i>p</i>	200

Si:Ni namunalarida, TI haroratining $T_{TI}=1000\div 1300$ °C intervalida, tez sovutish natijasida (texnik yog'da) termonuqsonlar hosil bo'lishi o'rganildi. Si:Ni namunalarning elektrik parametrlari barcha TI larda, nazorat namunalariga nisbatan nafaqat o'tkazuvchanlik tipi, elektr parametrlarining kattaligi ham saqlanib qolishi aniqlandi. Nazorat namunalarning o'tkazuvchanlik tipi va elektrik parametrlari sezilarli darajada o'zgaradi (2-jadval). Oligan natijalardan xulosa qilish mumkinki, yuqori haroratli TI larda ham, o'stirish jarayonida kiritilgan nikel kirishma atomlarining mavjudligi, materialning elektr parametrlarining turg'unligini ta'minlaydi, ya'ni nikel kirishma atomlari tez sovutish natijasida termik nuqsonlar hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.



3-rasm. SIMS da olingan, Ni⁺ ionlari uchun, Si:Ni namunalari yuzasi. a) TI dan oldin, b) 450 °C haroratli TI dan keyin, c) 1200 °C haroratli TI dan keyin

Ikkilamchi ionli mass-spektrometr (SIMS) dan olingan natijalardan aniqlandiki, (3-rasm va 3-jadval) Si:Ni namunalari yuzasidagi nikel konsentratsiyasi $3,79 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-2}$ ga teng. Agar nikel konsentratsiyasi butun hajmda bir xil deb hisoblasak, $N_{Ni} = 1,25 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ deb olishimiz mumkin, ya'ni nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi yetarlicha yuqori hajmiy eruvchanlikka ega. TI (2 soat davomida) harorati $T_{TI} = 450 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $T_{TI} = 1200 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha oshishi bilan namunalari yuzasidagi nikel konsentratsiyasi $1,05 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-2}$ dan $5,07 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ gacha oshishi aniqlandi.

Diffuziya usuli bilan legirlangan Fz-Si va poli-Si (donadorlik o'lchami $\sim 10 \div 500 \text{ mkm}$) namunalari sirtida nikel bilan boyitilgan soha hosil bo'lishi aniqlandi (4-rasm). Ikkala namuna yuzasidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi diffuziya harorati 800 °C dan 1200 °C gacha oshishi bilan kamayib boradi. Poli-Si namunalari yuzasi qismidagi nikel atomlari konsentratsiyasi, Fz-Si namunalari nisbatan $\sim 3 \div 4$ marta katta bo'lishi aniqlandi.

3-jadval

Har xil haroratli TI dan keyingi, Si:Ni namunalari yuzasidagi nikel atomlari konsentratsiyasi

$T_{TI}, \text{ }^\circ\text{C}$	450	550	650	700	800	950	1200
Nikel konsentratsiyasi, 10^{11} sm^{-2}	1,05	3,13	3,22	5,76	6,52	21,8	50,7



Infraqizil mikroskop yordamida, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan namunalarda, tarkibiga nikel kiruvchi birikmalarga tegishli bo'lgan, qora nuqtalar kuzatildi (5-rasm). Fz-Si<Ni>, Cz-Si<Ni> va poli-Si<Ni> namunalarda birikmalar konsentratsiyasi va o'lchami bir biridan farq qiladi. Fz-Si va Cz-Si namunalardagi farq (5-rasm), ulardagi kislorod konsentratsiyasining farqi bilan tushuntirildi. Infraqizil mikroskop yordamida poli-Si da nikel kirishma atomlarining birikmalarini kuzatish imkoni bo'lmadi (2, c rasm). AFM yordamida, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan namunalarda, o'lchami $0,1 \div 0,2 \text{ mkm}$ dan oshmaydigan yorug' nuqtalar kuzatildi (6-rasm). Agar bunday yorug' nuqtalarning nikelsiz nazorat namunalari kuzatilmaganligini hisobga olsak, bu nuqtalarni Ni

atomlarining mavjudligi bilan bog`liq (tarkibida nikel mavjud birikmalar) deb hisoblashimiz mumkin.

4-jadval

Har xil haroratdagi diffuziyaviy TI dan keyingi, Fz-Si<Ni> va poli-Si<Ni> namunalar yuzasidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi


T_{diff} , °C		800	950	1200
Nikel konsentratsiyasi, sm^{-2}	Fz-Si<Ni>	$3,74 \cdot 10^{13}$	$3,1 \cdot 10^{13}$	$4,52 \cdot 10^{12}$
	poli-Si<Ni>	$9,45 \cdot 10^{13}$	$9,18 \cdot 10^{13}$	$1,2 \cdot 10^{13}$




4-rasm. Nikel kirishma atomlari bilan 1200 °C haroratda legirlangan Fz-Si (a) va poli-Si (b) namunalar yuzasi

Nikelning diffuziya harorati ortishi bilan, Fz-Si<Ni> va poli-Si<Ni> namunalarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi kamayishi aniqlandi (7-rasm). Bu kovaklar konsentratsiyasi oshishiga olib keluvchi, elektrofaol nikel atomlarining konsentratsiyasi oshishi bilan tushuntiriladi. $T_{diff} \approx 1250$ °C haroratli diffuziyadan so`ng Fz-Si<Ni> namunalari p -tip o`tkazuvchanlikka ega bo`ldi. poli-Si namunalari nikel bilan legirlash, elektronlar konsentratsiyasiga sezilarli ta`sir ko`rsatmasligi aniqlandi va bu kirishma atomlarining (shulardan nikel atomlarining) donadorlik chegaralariga segregatsiyasi bilan tushuntiriladi. Kirishmalarning kristallitlar chegarasiga segregatsiyasi kirishma atomlarini elektr jihatdan faol bo`lmagan holatga o`tkazadi. Namunalardagi elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasi o`zgarishidan, poli-Si namunalarda elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasi $\sim 4 \cdot 10^{13} sm^{-3}$ dan oshmasligi aniqlandi. Bu mono-Si dagi, $T_{diff} \approx 1200$ °C haroratli diffuziyaviy TI dan keyin $10^{14} sm^{-3}$ ga yetuvchi, elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasidan sezilarli darajada kichik.

Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari, o`lchami $d_{cl} \sim 6 \div 8$ mkm va sirtiy konsentratsiyasi $N_{cl} \sim (5 \div 8) \cdot 10^3 sm^{-2}$ tartibida bo`lgan birikmalar hosil bo`lishi kuzatildi (8-a rasm). $T_{TI} = 450$ °C haroratli TI dan keyin, birikmalar yiriklashishi, ya`ni ularning o`lchami kattalashib, konsentratsiyasi kamayishi aniqlandi (8-b rasm). Tez sovutish bilan yakunlanadigan, yuqori haroratli TI dan keyin (2-jadval) nikel kirishma atomlari birikmalari kuzatilmadi, ya`ni ular to`liq parchalanadi yoki o`lchami sezilarli darajada kichrayadi (8-c rasm).



5-rasm. $T_{diff}=1200$ °C haroratda diffuziya usuli bilan legirlangan, Cz-Si (a), Fz-Si (b) va poli-Si (c) namunalarda nikel kirishma atomlari birikmalari



6-rasm. AFM da olingan, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si yuzasi. a) fazaviy rejim, b) 3D rejim


Diffuziya usuli bilan va o‘stirish jarayonida legirlangan kremniy asosidagi FE parametrlari o‘rganildi. FE tayyorlashda fosfor diffuziyasi $T_{diff}=1000$ °C haroratda $t_{diff}=30$ min davomida amalga oshirildi. Bunda $p-n$ o‘tish chuqurligi $\sim 0,6 \div 0,8$ mkm ni tashkil qildi. Cz-Si namunalariga nikel diffuziyasi (vakuumda purkalgan nikel qatlamdan) $T_{diff}=850$ °C haroratda, fosfor diffuziyasi nikel purkalgan tomonidan amalga oshirildi.

Qo‘shimcha TI $T_{TI}=800$ °C haroratda amalga oshirildi. Nikel kirishma atomlari bilan o‘stirish jarayonida legirlangan kremniy asosidagi FE parametrlari, qo‘shimcha TI keyin, diffuziya usulida legirlangan FE parametrlariga nisbatan ortishi aniqlandi (5-jadval).

«Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si va mono-Si kremniy hamda ular asosidagi FElar parametrlariga gamma-nurlanishning ta’siri» deb nomlangan to‘rtinchi bobda tadqiq qilinayotgan namunalar hususiyatlariga gamma-nurlanishning ta’sirini o‘rganish natijalari keltirilgan. Gamma-nurlanish dozasi oshishi bilan, Si:Ni namunalardagi nikel kirishma atomlari birikmalari o‘lchami kichirayadi va $\Phi=3 \cdot 10^8$ rad dozada ularning o‘lchami $d_{cr} \sim 4 \div 6$ mkm ga teng bo‘lishi, birikmalar sirtiy konsentratsiyasi o‘zgarmasdan qolishi aniqlandi (9-rasm).

$\Phi=3 \cdot 10^6$ rad dozali gamma-nurlanishdan keyin, nazorat namunalarining (Cz-Si) solishtirma qarshiligi ortib boradi va $\Phi=3 \cdot 10^8$ rad dozali nurlanishdan keyin ~ 7 marta o‘zgarishi aniqlandi (9-rasm, bu yerda: ρ_0 va ρ – namunalarning nurlanishdan oldingi va keyingi solishtirma qarshiligi). Shu bilan birga,

gamma-nurlanish dozasi $\Phi=3 \cdot 10^8$ rad gacha oshishi bilan Si:Ni namunalarning qarshiligi $\sim 30\%$ ga kamayadi.




7-rasm. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining diffuziya haroratiga bog‘liqligi

5-jadval

Cz-Si<Ni> va Si:Ni asosidagi FE parametrlari

FE	Cz-Si<Ni>	Si:Ni
$T_{diff}=1000\text{ }^\circ\text{C}$ dagi fosfor diffuziyasidan keyin		
J_{sc} , mA/sm ²	18,2	17,8
U_{oc} , mV	397	400
P_{peak} , mVt/sm ²	7,2	7,1
$T_{TI}=800\text{ }^\circ\text{C}$ haroratli TI dan keyin		
J_{sc} , mA/sm ²	19,7	19,3
U_{oc} , mV	412	423
P_{peak} , mVt/sm ²	8,1	8,2



8-rasm. Si:Ni namunalariidagi nikel kirishma atomlari birikmalari.

a) TI dan oldin, b) $T_{TI}=450\text{ }^\circ\text{C}$ haroratli TI dan keyin, c) tez sovutish bilan yakunlanadigan $T_{TI}=1200\text{ }^\circ\text{C}$ haroratli TI dan keyin

Material solishtirma qarshiligining kamayishi harakatchanlikning oshishi yoki qo‘shimcha zaryad tashuvchilarning generatsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Nurlanish davomida nuqsonlar soni ortishini hisobga olsak, harakatchanlikning ortish ehtimoli kam. Qo‘shimcha zaryad tashuvchilarning generatsiya mexanizmi tugunlararo joylashgan nikel atomlarining tugunga o‘tishi bilan tushuntiriladi. Bu holatda nikel atomlari *p*-tipdagi zaryad tashuvchilarni hosil qilib, elektrofaol holatga o‘tadi. Nikel birikmalari bo‘lsa, nurlanish sharoitida, vakansiyalar (birlamchi radiatsion nuqsonlar) bilan oson o‘zaro ta’sirlashuvchi, tugunlararo nikel atomlarining generatsiyasi uchun deyarli cheksiz manba hisoblanadi.

Namunalarda $\Phi=3 \cdot 10^8$ rad dozali gamma-nurlanishdan keyin, $\Delta T=100\text{ }^\circ\text{C}$ qadam bilan, $100\text{ }^\circ\text{C}$ dan $600\text{ }^\circ\text{C}$ gacha oshib boruvchi bosqichli (har bir bosqich $t_{TI}=10$ min.) TI berildi. Har bir bosqichdan keyin Xoll koeffitsiyenti va namunalarning solishtirma qarshiligi o‘lchandi. Olingan natijalardan o‘zgarishsiz qolgan nuqsonlar ulushi $f=(p_0-p_{TI})/(p_0-p_\gamma)$ hisoblandi, bu yerda: p_0 , p_γ , p_{TI} – mos

ravishda, nurlanishdan oldin, $\Phi=3 \cdot 10^8$ rad dozali nurlanishdan keyin va TI ning har bir bosqichidan keyingi namunalardagi kovaklar konsentratsiyasi.


$T_{TI}=600$ °C haroratli TI dan keyin nazorat namunalarning parametrlari dastlabki parametrlari bilan mos tushadi, ya'ni nurlanishda hosil bo'lgan barcha radiatsion nuqsonlar yo'qoldi (10-rasm). Shu bilan birga, TI Si:Ni namunalari parametrlariga ta'sir qilmasligi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida, nurlanish davomida bunday materiallarda radiatsion nuqsonlar konsentratsiyasi kam ekanligidan dalolat bersa, qo'shimcha hosil bo'lgan zaryad tashuvchilarning yo'qolmasligi bo'lsa, ularning turg'unligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu gamma-nurlanishga uchragan Si:Ni namunalari elektrofizik parametrlarining o'zgarishini tushuntiruvchi tavsiya qilingan mexanizmning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Olingan tajriba natijalaridan ko'rinadiki, nikel atomlarining mavjud bo'lishi kremniyning radiatsion turg'unligini oshiradi. Nikel atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlash, diffuziyaviy usulda legirlashga nisbatan texnologik jihatdan qulay va arzonligi tufayli, radiatsion turg'unligi yuqori bo'lgan kremniy asosidagi asboblarni yaratishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi.


Poli-Si namunalari parametrlarining radiatsiya ta'sirida o'zgarishiga nikel atomlarining ta'siri o'rganildi. 11-rasmda nikel kirishma atomlari bilan $T_{diff}=1200$ °C haroratda legirlangan poli-Si va nazorat namunalardagi, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining gamma-nurlanish dozasi bog'liq ravishda kamayishi ($\Delta n=n_\gamma-n_0$) ko'rsatilgan, bu yerda: n_0 va n_γ nurlanishdan oldingi va keyingi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi.

Olingan natijalardan ko'rinadiki, nikel bilan legirlangan namunalarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi nazorat namunalariga nisbatan $\sim 7 \div 8$ marta kamroq kamayadi. Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si parametrlarini, gamma-nurlanishdan keyin o'lchash orqali, zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi kamayishi diffuziya haroratiga bog'liqligi aniqlandi. Nikel atomlarining diffuziya harorati oshishi bilan poli-Si parametrlarining radiatsion turg'unligi oshib boradi (6-jadval).


Nikel bilan legirlangan mono-Si asosidagi FE parametrlariga gamma-nurlanishning ta'sirini o'rganish maqsadida, dastlabki material sifatida, p -tip o'tkazuvchanlikka ega, solishtirma qarshiligi $\rho=0,5$ Om·sm bo'lgan kremniy plastinkalari tanlab olindi.



9-rasm. Solishtirma qarshilikning (1-Cz-Si, 2-Si:Ni) va birikmalar o'lchamining (3) gamma-nurlanish dozasi bog'liqligi



10-rasm. Nazorat (1) va Si:Ni (2) namunalardagi nuqsonlarning o'zgarishi



11-rasm. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining gamma-nurlanish dozasi bog'liq ravishda o'zgarishi

Ushbu namunalar asosida, nikel atomlari bilan legirlangan (Ni guruh) va nikel atomlarisiz (C guruh) FE olindi. Nikel diffuziyasi $T_{diff}=1200, 1000, 850$ °C haroratda, mos ravishda $t_{diff}=3, 10, 30$ min davomida amalga oshirildi. Keyin $T_{diff}=1000$ °C haroratda, $t_{diff}=30$ min davomida, fosfor atomlarini diffuziya (nikel purkalgan tomonidan) qilish orqali $p-n$ o'tish hosil qilindi. Diffuziyaviy TI dan keyin, $T_{TI}=800 \div 750$ °C optimal haroratda, $t_{TI}=30$ min davomida, qo'shimcha TI berildi. C guruh FELari ham xuddi shu texnologiyada, nikel purkalmasdan amalga oshirildi. FE yuzasida yorug'lik qaytishini kamaytiruvchi qatlam hosil qilinmadi.

6-jadval


Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan poli-Si da zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining o'zgarishi

T_{diff} °C		850	900	950	1000	1050	1100	1150	1200
$-\Delta n, \cdot 10^{13} sm^{-3}$	Ni	3,7	2,5	1,3	0,9	0,1	0,08	0,07	0,05
	C	2,6	5,5	8,2	4,3	3,8	3	0,8	0,4

12-rasmda $T_{diff}=1200$ °C haroratda nikel bilan legirlangan FE parametrlarining nisbiy o'zgarishining gamma-nurlanish dozasi bog'liqligi ko'rsatilgan, bu yerda: $U_{oc,\Phi}/U_{oc,0}$ va $J_{sc,\Phi}/J_{sc,0}$ – mos ravishda FE salt yurish kuchlanishining va qisqa tutashuv tokining nisbiy o'zgarishi, $U_{oc,0}$, $J_{sc,0}$, va $U_{oc,\Phi}$, $J_{sc,\Phi}$ – mos ravishda FE parametrlarining nurlanishdan oldingi va keyingi qiymatlari (7-jadval). Gamma-nurlanish dozasi oshishi bilan barcha guruh FE parametrlari kamayib boradi.

$\Phi=10^8$ rad dozada, Ni guruh FE salt yurish kuchlanishi qiymati 542,8 mV (~8% ga) gacha kamayadi, C guruh FE salt yurish kuchlanishi qiymati 490,3 mV (~10% ga) gacha kamayadi. Ni guruh FELari qisqa tutashuv toki 23,64 mA/sm² (~28% ga) gacha, C guruh FELari qisqa tutashuv toki 15,5 mA/sm² (~49% ga) gacha kamayadi. 7-jadvalda gamma-nurlanishdan oldingi va keyingi parametrlari va δ_A qiymati ($\delta_A=A_{Ni}/A_C$ bu yerda: A_{Ni} , A_C – mos ravishda

Ni va C guruh FE parametrlari (U_{oc} , J_{sc} , τ) keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki $\delta_r > \delta_j > \delta_U > 1$, ya‘ni Ni guruh FELari C guruh FELariga nisbatan samaraliroq. Gamma-nurlanish dozasi oshishi bilan δ_A qiymati ortib boradi va har doim $\delta_A > 1$ qiymatni qabul qiladi. Bundan ko‘rinadiki Ni guruh FE parametrlari, C guruh FE parametrlariga nisbatan kamroq o‘zgarib boradi. Olingan tajriba natijalaridan ko‘rinadiki, nikel kirishma atomlari bilan legirlash FE parametrlarining radiatsion turg‘unligini oshiradi. Nikel atomlarini legirlash haroratining oshishi bilan FE parametrlari kamayib boradi, lekin δ_A qiymati ortib boradi. Nurlanish dozasi oshishi bilan radiatsion nuqsonlar konsentratsiyasi oshib boradi, $\tau \sim 1/N_r$ bo‘lganligidan (τ – asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqti, N_r – rekombinatsiya markazlari konsentratsiyasi), nurlanish dozasi oshishi bilan τ ham kamayishi kerak. Mos ravishda, asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning diffuziya uzunligi ham kamayadi. Shu sababli, FE $p-n$ o‘tish chuqurligigacha yetib boruvchi, asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilar miqdori kamayadi va FE parametrlari yomonlashadi. Ni guruh FE parametrlari C guruh FE parametrlariga nisbatan sezilarli darajada kamroq o‘zgarishi, bu materiallarda ikkilamchi radiatsion nuqsonlarning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi mexanizm borligini ko‘rsatadi.



12-rasm. $T_{diff}=1200^\circ\text{C}$ haroratda nikel bilan legirlangan FE parametrlarining nisbiy o‘zgarishining gamma-nurlanish dozasi ga bog‘liqligi

Nikel atomlarining o‘ziga xos tomoni, ularning o‘zgaruvchan valentlikka egaligi bo‘lib, kimyoviy bog‘lanishda d -elektronlarning qatnashishi bilan tushuntiriladi. Bu bir tomondan ularning kristall panjarada past haroratlarda ham migratsiya tezligining yuqori ekanligini bildirsa, boshqa tomondan ularning panjara nuqsonlari va texnologik kirishmalar bilan ta’sirlashish ehtimolining yuqori ekanligini bildiradi.

Kremniy materialida tugunlararo nikel kirishma atomlarining yuqori konsentratsiyasida, asosan, kirishma atomlari bilan birlamchi radiatsion nuqsonlarning ta’sirlashuvi sodir bo‘ladi. Nikel kirishma atomlari kristall bo‘ylab harakatlanib, radiatsiya tasirida hosil bo‘lgan vakansiyalar bilan intensiv ta’sirlashadi. Vakansiya markazlarining nikel atomlari bilan egallanishi,

«tugundagi» nikel atomlarini hosil qiladi, mos ravishda ikkilamchi radiatsion nuqsonlarning hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qilinadi.

7-jadval

Nurlanishdan oldingi va keyingi FE parametrlarining o‘rtacha qiymati

T_{diff} , °C	FE Parametrlari	Dastlabki $\Phi=0$			Nurlanishdan keyin $\Phi=10^8$ rad		
		Guruh		δ_A	Guruh		δ_A
		C	Ni		C	Ni	
1200	U_{oc} , mV	541	590	1,09	490,3	542,8	1,1
	J_{sc} , mA/sm ²	26	33	1,27	15,5	23,64	1,52
	τ , μs	8	14	1,75	5	12	2,4
1000	U_{oc} , mV	570	590	1,04	466	514	1,1
	J_{sc} , mA/sm ²	30	35	1,17	17,56	24,15	1,38
	τ , μs	12	20	1,67	10	16	1,6
850	U_{oc} , mV	590	605	1,03	482	541,4	1,12
	J_{sc} , mA/sm ²	32	38	1,19	18,8	27,74	1,48
	τ , μs	15	30	2	13	21	1,61

XULOSA

1. Diffuziyaviy legirlashda poli-Si da mono-Si kabi namunalar sirtida nikel atomlari bilan boyitilgan soha hosil bo‘ldi. Namunalar sirtidagi nikel atomlarining konsentratsiyasi diffuziya harorati oshishi bilan kamayib bordi. Diffuziyaviy legirlashda poli-Si namunalari sirtidagi nikel kirishma atomlarining mono-Si ga nisbatan 3÷4 marta katta ekanligi, poli-Si namunalarida elektrofaol nikel atomlarining konsentratsiyasi mono-Si ga nisbatan bir tartibga kam ekanligi aniqlandi.

2. Diffuziyaviy legirlashda poli-Si da mono-Si dagi kabi nikel kirishma atomlari birikmalari hosil bo‘ldi. poli-Si namunalaridagi birikmalar o‘lchami mono-Si ga nisbatan ikki tartibga kichik, birikmalar konsentratsiyasi esa 10^3 marta katta bo‘ladi.

3. Nikel kirishma atomlari bilan diffuziya usulida legirlangan, mono-Si asosidagi FElar parametrlariga $\Phi=10^5\div 10^8$ rad doza intervalidagi gamma-nurlanish (nurlanish harorati ~ 27 °C) ta’siri o‘rganildi. Nikel atomlarining diffuziya harorati oshishi bilan FE parametrlarining radiatsiyaga turg‘unligi oshib borishi aniqlandi.

4. Nikel kirishma atomlari bilan o‘stirish jarayonida legirlangan kremniyning elektrofizik va optik parametrlari o‘rganildi. Bunday materiallarda birikmalar o‘lchami $\sim 6\div 8$ mkm ga, birikmalar konsentratsiyasi $\sim (5\div 8)\cdot 10^3$ sm⁻² ga teng bo‘lishi tajribada aniqlandi. Kremniyni o‘stirish jarayonida nikel atomlari bilan legirlash optik faol kislorod konsentratsiyasini $\sim 25\div 30$ % kamaytiradi.

5. Legirlash usuliga bog‘liq bo‘lmagan ravishda (diffuziya usulida, o‘stirish jarayonida) kremniyda nikel atomlarining mavjud bo‘lishi, 450 °C da

termodonorlarning hosil bo'lishiga, tez sovutish natijasida termonuqsonlarning hosil bo'lishiga va gamma-nurlanish ta'sirida radiatsion nuqsonlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qilishi aniqlandi. TI harorati 450 °C dan 1200 °C gacha oshishi bilan, nikel kirishma atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlangan kremniy sirtidagi nikel kirishma atomlarining konsentratsiyasi mos ravishda $1,05 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-2}$ dan $5,07 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ gacha oshib boradi.

6. Gamma-nurlanish dozasi oshishi bilan, nikel kirishma atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlangan kremniydagi birikmalar o'lchami va material solishtirma qarshiligi kamayib boradi. Nikel atomlari bilan legirlangan kremniy gamma-kvantlari bilan nurlantirish, elektrofaol nikel atomlari konsentratsiyasini oshirishda texnologik usul sifatida tavsiya qilindi. Nikel kirishma atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlash gamma-nurlanishga turg'un parametrli kremniy olishda optimal texnologik usul sifatida tavsiya qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИКИ ПОЛУПРОВОДНИКОВ И
МИКРОЭЛЕКТРОНИКИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА
УЗБЕКИСТАНА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КОСБЕРГЕНОВ ЕРНАЗАР ЖУСИПБАЙ УЛЫ

**ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ И ГАММА ОБЛУЧЕНИЯ НА
ПАРАМЕТРЫ КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО НИКЕЛЕМ И
ФОТОЭЛЕМЕНТОВ НА ЕГО ОСНОВЕ**

01.04.10 – Физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/FM769

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете и Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ispm.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Исмаилов Канатбай Абдреймович
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тургунов Нозимжон Абдуманнопович
доктор физико-математических наук, доцент

Юлчиев Шахриёр Хусанович
доктор физико-математических наук, профессор

Ведущая организация: Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится « 07 » « 09 » 2023 г. в 12-00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 при Научно-исследовательском институте физики полупроводников и микроэлектроники Национального университета Узбекистана (Адрес: 100057, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-94, факс: (+99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в отделе внедрения цифровых образовательных технологий института (зарегистрирована за № 54) по адресу: 100057, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-59.

Автореферат диссертации разослан « 25 » « 08 » 2023 г.
(реестер протокола рассылки № 54 от « 25 » « 08 » 2023 г.).



Ш.Б. Угамурадова,
председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Ж.Ж. Хамдамов,
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD, с.н.с.

Н.А. Тургунов,
председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д. ф.-м. н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (Phd))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мире фотоэлементы (ФЭ) на основе кремния широко используются, в связи с растущим спросом на дополнительные энергоресурсы. Среди них ФЭ на основе монокристаллического кремния (моно-Si) и поликристаллического кремния (поли-Si) обладают высокой чувствительностью к внешним воздействиям. Поэтому изучение влияния температуры и радиации на параметры, прочность и стабильность работы ФЭ является актуальным.

На мировом уровне в ведущих научных центрах разрабатываются высокоэффективные многокаскадные ФЭ на основе полупроводниковых соединений. Однако технология их изготовления достаточно сложная и требует наличия дорогостоящего сырья и оборудования. На мировом рынке по производству доля ФЭ на основе поли-Si составляют - 52,9 %, доля ФЭ на основе моно-Si составляют - 33,2 %, доля ФЭ на основе аморфного кремния составляют - 13,9 %. В связи с относительной дешевизной, создание полупроводниковых приборов и ФЭ на основе поли-Si занимают лидирующие позиции в мире. Поэтому важно разработать ФЭ на основе поли-Si с высокой эффективностью.

В нашей республике достигаются определенные результаты в развитии отрасли физики полупроводников, в частности, в создании недорогих ФЭ и полупроводниковых приборов, отвечающих требованиям мировых стандартов, а также в исследовании их параметров. В связи с этим растет потребность увеличения времени жизни неосновных носителей заряда, термической и радиационной стабильности кремния, путем геттерирования скоплениями никеля. А также полностью не установлен физический механизм формирования скоплений и не разработаны технологические методы получения материала со скоплениями. Таким образом, создание сравнительно дешевого с экономической точки зрения и стойкого к термообработкам (ТО) и радиационному облучению ФЭ, путем легирования кремния примесными атомами никеля, является актуальной задачей.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служат выполнению задач, поставленных в законе Республики Узбекистан № ЗРУ-539 «Об использовании возобновляемых источников энергии» от 21 мая 2019 года, в постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области физики» от 19 марта 2021 года и в постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-57 «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий» от 16 февраля 2023 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: III. «Энергия, энергосбережение, транспорт,

машиностроение и приборостроение; развитие современной электроники, микроэлектроники, фотоники, электронного приборостроения».

Степень изученности проблемы. До настоящего времени механизмы диффузии атомов никеля, их состояние в кристаллической решетке, влияние на электрические параметры моно-Si, свойства скоплений примесных атомов никеля, а также физические механизмы образования скоплений исследовались многими зарубежными учеными - такими как: Н. Kitagawa, А. Istratov, М. Yoshida, Н. Aalberts, J. Lindroos, S. Tanaka и другие зарубежные ученые.

Образование комплексов примесных атомов никеля с другими примесями в кремнии и физические свойства комплексов, влияние температуры и радиации на электрофизические параметры кремния и кремниевых ФЭ исследовались в работах Ф. Коршунова, В. Просоловича, И. Медведева.

